

MUNDARIJA:

KIRISH.....	2
I BOB. FRAZEOLOGIK TIZIM VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI.....	4
1.1. Frazelogizmlar va ularning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi.....	4
1.2. Iboralar: turlari, shakl va ma’no munosabatlari.....	9
Bob bo‘yicha xulosa.....	16
II BOB. FRAZEOLOGIZMLARNING USLUBLARDA QO‘LLANILISHI VA LEKSIKOGRAFIK AHAMIYATI.....	17
2.1. Iboralar keng qo‘llaniluvchi nutq uslublari.....	17
2.2. O‘zbek leksikografiyasida frazeologizmlarning o‘rni.....	29
Bob bo‘yicha xulosa.....	37
XULOSA.....	38
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	41

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda frazeologizmlarni har tomonlama o'rganish bo'yicha ko'pgina tadqiqot ishlari bajarilayotganini kuzatish mumkin. Masalan, grammatik, semantik, stilistik, lingvokulturologik hamda boshqalar. Frazeologik birliklar ikki va undan ortiq birlikdan tashkil topgan, tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'lgan, ko'chma ma'no bildiruvchi, barqaror birikma sifatida tilning boshqa birliklaridan ajralib turadi. Frazeologizmlar tilning lug'aviy boyligini tashkil qiladi. Shunga ko'ra frazeologizmlarni tadqiq etish jarayonida ushbu birlikning turli jihatlari yoritib berilgan. Biroq, frazeologik birliklarning paydo bo'lishi, semantikasi, etimologiyasi, lug'atlardagi o'rni hamda til ichki tizimiga xos bo'lgan shakllanish bosqichlari etarlicha darajada o'rganilmagan. Frazeologizm va so'z o'rtasidagi muhim farqli tomonlar ularning semantikasida aks etadi. Qachonki frazeologizmlarning ma'nosini to'g'ri anglansagina uni o'rinli qo'llash mumkin. Shu sababli frazeologizmlarda semantika muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga frazeologizmlarni faqatgina nazariy jihatiga ko'ra emas, amaliy tomonlama ham chuqur o'rganish imkonini beruish uchun frazeologik lug'atlar zaruriy manba hisoblanadi. Shunga ko'ra frazeografiya xususiyatlarini tadqiq etish bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi. Shunday qilib tadqiqot dolzarbligi frazeologizmlarning semantik shakllanishi hamda leksikografik xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan talabning etarlicha o'rganilmaganligidir. Frazemalar tilimizning lug'at boyligini oshiradi va uni o'rganish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Kurs ishining maqsadi. o'zbek tili frazeologizmlarining semantik va leksikografik xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Kurs ishining vazifalari.

- o'zbek tilidagi frazeologik ma'noning kelib chiqish etimologiyasini o'rganish;
- frazeologik birliklarning semantik shakllanish jarayonlarini tahlil qilish;
- frazeografiya sohasida bajarilgan ishlarni qiyosiy jihatdan yoritish;

- frazemalarning leksikografik manbalardagi talqini bilan tanishish.

Kurs ishining obykti. Tadqiqot obykti sifatida o‘zbek tilidagi frazeologizmlar tanlandi.

Kurs ishining predmeti. Frazeologizmlar ma’nolarining kelib chiqishi va lug‘atlarda frazeologik birliklarning talqini tashkil etadi.

Kurs ishining metodologik asosi va metodlari. dissertatsiyada qiyosiy, madaniy(kultur), etimologik, semantik, tarixiy, tahlil, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi. Jahon va o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, lekin frazeologizmlar alohida yo‘nalish sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Shu tufayli biz tadqiqot ishimizda jahon tilshunoslari Sharll Balli, rus rus tilshunosi V.V.Vinogradov, Ferdinand de Sossyur, o‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayevning o‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati, A.Mamatovning “O‘zbek tili frazeologiyasi”, B.Yo‘ldoshev “Frazeologik uslubiyat asoslari” hamda O‘zbek tilining 5 tomlik izohli lug‘atidan, yangi “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”dan, , XI-XVIII asrlarda yaratilgan leksikografik asarlardan. Xususan, “Devonu lug‘otit-turk”, “Abushqa” va boshqa frazeologiyaga oid asarlar, dissertatsiya, monografiyalardan foydalanildi.

Kurs ishining tarkibiy tuzilishi. Ushbu tadqiqot ikki mustaqil bob, to‘rt fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda umumiy 42 sahifadan iborat.

I BOB. FRAZEOLOGIK TIZIM VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI

1.1 Frazelogizmlar va ularning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi ko‘pgina imkoniyatlar eshigini ochdi, xalqimizning turmush tarzi, milliy-madaniy hayotiga ulkan ijobiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Istiqlol sharofati bilan unutilgan milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning hayoti darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga chiqarish uchun keng miqyosda ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar ichida milliy va madaniy qadriyatlarni saqlab qolish, yosh avlodni vatanparvarlik tuyg‘ulari asosida tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlar eng muhimi hisblanadi. Bejizga Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”da “Biz taqdim etayotgan strategiyaning maqsadi milliy o‘ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o‘tgan an‘analarimizni, iymon-e‘tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgandir”¹ degan g‘oyani ilgari surmayapti. Darhaqiqat, so‘nggi yillarda yurtimizning madaniyatini yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi kelajagini yaratish, ma‘naviyatimizning asosi hisoblangan adabiy tilimizni boyitish, ta‘lim jarayonida yoshlarimiz ongiga milliy o‘zligimizni singdirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Har qanday til o‘z ichki va tashqi imkoniyatlari asosida doimo boyib boradi. Tilning ichki tomonlama boyishida frazeologizmlarning ham o‘rni bor. Bu haqida I.V.Arnold quyidagi fikrni bildirib o‘tadi: “Har qanday tilning boyishi faqat yangi so‘zlar yasalishi hisobiga emas, balki turg‘un birikmalarning ortib borishi hisobiga ham sodir bo‘ladi”.²

Hozirgi kunda so‘zning leksik, grammatik, semantik jihatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da frazeologiya sohasida bunday deya olmaymiz, frazeologik birliklarni tilning uzviy ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqish, frazeologiyaning umumiy va o‘ziga xos tomonlarini, semantik va leksikografik xususiyatlarini mukammal o‘rganib chiqishni taqozo etadi. Frazelogizmlar haqida fikr yuritilar

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 275.

² Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М: Высшая школа, 1969. – С. 187.

ekan, avvalo, uning lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratsak. Frazeologiya yunoncha so‘z bo‘lib, “phrasis” - ibora, “logos” - ta’limot, ya’ni “iboralar haqidagi ta’limot” degan ma’noni anglatadi. Rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologizmlarning o‘rganilishi yuzasidan o‘z fikrlarini bayon qilar ekan, shunday deydi: “Frazeologiya terminni dunyo tilshunosligida 1558- yil ingliz adabiyotshunosi Neander tomonidan ilk marta qo‘llangan”. Yana bir boshqa manbada keltirilishicha bu atama ilk bor 1928-yilda Y.D.Polivanov tomonidan qo‘llanilgan deyiladi: “Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada bo‘lsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanni “frazeologiya” degan terminni qo‘llashni lozim topdim”³. “Frazeologizm – bu tuzilishi jihatdan so‘z birikmasiga yoki gapga teng bo‘lgan, umumlashgan ma’no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, turg‘un leksik-semantik birlikdir”⁴. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, frazeologiya bo‘yicha ko‘plab tilshunoslar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Xususan, jahon tilshunosligida frazeologiya nazariyasiga dastlab shveysar-fransuz tilshunosi Sh.Balli (1865-1947) asos soldi, u tashqi belgiga nisbatan ichki belgi ahamiyatli va eng qimmatli ekanligini isbotladi va frazeologik birikmalarning tashqi va ichki belgilarining bir-biridan farqini ajratib ko‘rsatib berdi. Bu nazariya frazeologiyani yanada keng tadqiq qilish va uning tilshunoslikning alohida fan sohasi bo‘lib shakllanishida muhim ta’sir ko‘rsatdi. Sharll Balli o‘zining “Stilistika ocherki” (1905) asarida so‘z birikmalarining besh turini farqlab ko‘rsatib bergan.

Jahon tilshunosligida frazeologizmlarning o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligida bu sohaning taraqqiy etishida muhim nazariy hamda amaliy manba bo‘lib xizmat qildi. Dastlab bu soha o‘zbek tilshunosligida XX asrning 50-yillarida o‘rganila boshlangan deyiladi. Frazeologizmlar dastlab lug‘atshunoslikda qo‘llanilgan, hali ular alohida o‘rganilmagan. Keyinchalik olimlarimiz tomonidan ilmiy tadqiq qilinib, frazeologizmlar mustaqil soha bo‘lib shakllantirildi. Bu jarayonda albatta,

³ Umarxo‘jaev M.E. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. – Andijon: ADTPI, 2010. – B. 55.

leksikografiya turtki bo'lib xizmat qilgan. Frazzeologiyaning o'zbek tilshunosligida paydo bo'lishi va rivojlanishi bevosita filologiya fanlari doktori, professor Shavkat Rahmatullayev nomi bilan bog'liq. U birinchilardan bo'lib frazeologik birliklar haqida bir qator tadqiqotlar olib bordi va o'zining "Hozirgi o'zbek tilida obrazli fe'lli frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari" nomli monografiyasini 1952-yilda e'lon qildi. Shundan so'ng u mazkur sohadagi ilmiy-tadqiqot ishini davom ettirib frazeologik birliklarning grammatik, semantik, leksik xususiyatlariga bag'ishlab bir qancha maqolalar, monografiya, o'quv qo'llanmalar yozdi. Jumladan, "Hozirgi zamon o'zbek tilidagi o'zlashgan frazeologik birliklar haqida" (1957), "Hozirgi zamon o'zbek tilidagi frazeologik birliklar grammatik qurilishining o'zgarishi haqida" (1963), "Fe'l frazeologik birliklarda moslashuv" (1964), "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari", "Nutqimiz ko'rki" (1970), kabi asarlari frazeologik birliklarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sh.Rahmatullayevning frazeologik lug'at ishini davom ettirgan bir qancha olimlarimiz mavjud bular: M.Sodiqovning "Qisqacha ruscha-o'zbekcha barqaror iboralar lug'ati" (1994), M.Sattorning "O'zbekning gapi qiziq" (1994), B.Yo'ldoshev, K.Bozorboyevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" (so'zlik, 1998), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning "Ma'nolar maxzani" (2001) singari leksikografik asarlar shular sirasiga kiradi. Rahmatullayevning yana bir buyuk ishini qayd etib o'tish lozimki, u ilk bor 1964-yilda "O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'atini" yaratdi. Bu lug'at tilshunoslar uchun frazeologik birliklarni o'rganishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Sh.Rahmatullayev lug'at ishini davom ettirib 1978-yilda "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"ni nashrdan chiqardi. 1992-yilda ushbu izohli lug'atning qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri chop etildi. Lug'atda frazeologik birliklarning ma'no tomonlari izohlangan, shuningdek, iboralarning sinonimlari, variantdoshliklari chiroyli misollar bilan birga talqin qilingan. Shavkat Rahmatullayevning bu ishlari uni haqli tarzda o'zbek frazeologizmi asoschisi maqomiga ko'tardi. Shavkat Rahmatullayevdan tashqari A.Mamatov, B.Yo'ldoshev, A.Rafiyev, A.G'ulomov, Sh.Usmanova va boshqa bir

qator olimlar tomonidan frazeologizmlar tadqiq qilindi. Frazeologik birliklarning funksional-uslubiy, uzual va okkazonal vazifalari, matndagi pragmatik imkoniyatlari B.Yo‘ldoshev hamda U. Rashidovaning (PhD) tadqiqotlarida o‘rganilgan⁵. Xususan, Abdug‘ofur Mamatov frazeologizmlarning o‘ziga xos murakkab shakllanish jarayonlari, lisoniy va nolisoniy omillari, so‘zlarning frazeologik birliklarni ifodaviy va mazmuniy shakllanishidagi o‘rni, frazeologizmlarning semantik, leksik-semantik transformatsiyasi semantikpragmatik xususiyatlarini tadqiq etish va uni o‘quv jarayoniga tatbiq etgan. Shu bilan birgalikda u frazeologik birliklarning umumnazariy asoslari, frazeologik birliklar shakllanishida so‘zlarning o‘rni, qo‘llanilish doirasi va imkoniyatlari, leksiksemantik transformatsiyalanish va spontan ma’nolarning shakllanishi, frazeologik birliklarning semantik, grammatik va vazifaviy ko‘chishi, muayyan sohaga xosligiga ko‘ra guruhlarga bo‘linishini tasnif qilib o‘rgangan olim hisoblanadi. A.Mamatovning frazeologizmlarga bag‘ishlangan o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi oliy o‘quv yurtlarining xorijiy filologiya, boshlang‘ich ta’lim fakultetlarida o‘qitiladigan hozirgi o‘zbek adabiy tili predmetining frazeologiya bo‘limini yoritishga, to‘plangan til materiallari esa o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar, lug‘atlar tuzish uchun xizmat qiladi.

Frazemalarining semantik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan ko‘plab ishlar ham frazeologizmlarning o‘rganilishida beqiyos asos bo‘lib xizmat qilyapti. Frazeologizmlar tarkibidagi har bir so‘z turli darajada bo‘lsa-da o‘z ma’no mustaqilligiga ega. Biroq, frazeologik ma’noning hosil bo‘lishida ishtirok etgan so‘zlarda biri asosiy tayanch hamda asos valkufasini bajaradi. Tilshunos olimlar ham bu borada o‘z mulohazalarni aytib o‘tishgan. Jumladan, V.V.Vinogradov «frazemalarning noaniqlik, yopiqlik, shuningdek, so‘z (komponentlarining nomustaqilligi turli frazemalarda har xil bo‘ladi» deb fikr bildirsa, A.I.Smirnitskiy “komponentlarini leksema deb atash, ammo ularni o‘ziga xos holda qo‘llash zarur”

⁵ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 21.

deya ta'kidlaydi⁶. A.V.Kunin esa komponentlar o'zlarining so'zlik xususiyati bilan farqlanishini⁷ qayd etadi. Sh.Rahmatullayevning fikrcha, "komponentlar o'zlarining xususiy ma'nolarini saqlab qolsa-da, ularni tayanch va notayanch a'zo sifatida talqin qilish zarur"⁸ligini, M.Umarxo'jayev "komponentlar semantik "kuchsizlansa-da ular leksemalardir"⁹ degan fikrlarni bildirib o'tadilar. Hozirgi o'zbek adabiy tilining frazeologik birliklarini har tomonlama tadqiq qilish bu sohaning grammatik, stilistik, semantik-struktur tiplarini o'rganishga imkoniyat yaratadi. Frazeologik birliklarning ma'no, stilistik, grammatik-semantik xususiyatlari prof. Sh.Rahmatullayev, A.Rafiyev, A.Mamatov, Q.Xakimov, Sh.Almamatova, U.Rashidovalarning tadqiqotlarida bayon etilgan. Sh.Balli frazeologik semantikani ularning mutlaq belgisi deb e'tirof etib quyidagi fikrlarni bayon qilgan: "Frazeologik birliklar leksik-semantik, grammatik, sintaktik jihatdan yaxlit birliklardir". Sh.Rahmatullayev turg'un birikmalar haqidagi mulohazasida "komponentlar o'zlarining so'z sifatidagi ma'nolarini muayyan ma'noda yo'qotishi va frazemadan umumlashgan ma'no yuzaga chiqishini e'tirof etadi. Shu bilan birga komponentlarning frazemalarning ma'no shakllanishi va ma'no taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini va frazemalar, avvalo, semantik hodisa ekanligini ta'kidlaydi"¹⁰. Sh.Usmanovanning aytishi bo'yicha esa "frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologik fondida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy, ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy sterotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan avlodga uzatiladi".

Umuman olganda, frazeologiya sohasida ko'plab ishlar yaratilgan: Ilmiy asarlar, monografiyalar, turli xil tadqiqotlar, dissertatsiya ishlari qilingan, lug'atlar tuzib chiqilgan bo'lsa-da, biroq butunlay barcha ishlar amalga oshirilib yakunlangan

⁶ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Наука, 1956. – С. 207.

⁷ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Наука, 1981. – С. 71.

⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. —Тошкент: Фан, 1986. – Б. 6.

⁹ Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Ташкент, 1983. -С. 27-40.

¹⁰ Раҳматуллаев Ш. Лексема ва фразема маъносини компонент таҳлилининг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1986. -№ 3. – Б.16-21.

deya olmaymiz. Hali oldinda bu sohada bajarilmagan ishla talaygina. Frazemalarining ma'nosini o'rganish orqali ularning turli xil xususiyatlari namoyon bo'ladi, ular so'zlardan tashkil topadi, tilda tayyor holda qo'llaniladi, nutqda boshqa gap bo'laklari bilan aloqaga kirishadi, shuningdek, grammatik shakllangan bo'ladi. Shu ma'noda frazeologik birliklar shaxsning ichki kechinmalari, psixologik holati, voqea va hodisalarga obrazli munosabatini ifodalaydigan til hodisasidir. Frazeologizmlarning semantikasi uning muhim asosi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot frazeologizmlarning ma'no tomonini, uning xususiyatlarini, ma'nosini tashkil etgan so'zlarning tarkibini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

1.2 Iboralar: turlari, shakl va ma'no munosabatlari

Tilda shunday birikmalar ham borki, ularning tarkibidagi so'zlar o'rtasida semantik grammatik aloqa sezilmaydi, chunki bunday birikmalar aynan shu nutq jarayonida yaratilmay, tilda avvaldandan bir butun holda mavjud bo'ladi. Ular shu holatda tarkibidagi so'zlarning mavjud ma'no markaziga birlashadi va so'zga teng bir ma'no anglatishga xoslanadi. Shuning uchun ular so'zlarning *turg'un birikmalari* deb nomlanadi. Masalan, *Ular bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qiladilar* gapida «bir yoqadan bosh chiqarmoq» birikmasi turg'un birikmadir, chunki uning tarkibidagi so'zlar yaxlit holda murakkab birikmani tashkil qilgan. Shunga ko'ra bu birikma, tarkibidagi so'zlarning miqdoridan qat'iy nazar, bir leksik tushunchani anglatgan va gapda ham bir sintatik bo'lak vazifasida kelgan. So'zlarning turg'un birikmalari tilshunoslikning alohida sohasi – frazeo-logiyaning tekshirish ob'yekti.

So'zlarning turg'un birikmasi hamma vaqt so'z birikmasiga emas, balki gapga teng ham bo'lishi mumkin: *Sichqonning ini ming tanga bo'ladi, Og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadi* kabi. Ko'rinadiki, faqat so'zlar birikmasi emas, balki gaplar ham erkin va turg'un bo'lar ekan. Shuning uchun turg'un birikmalarni birikmaga teng turg'un uyushmalar va gapga teng turg'un uyushmalar tarzida ikkiga ajratish mumkin. Turg'un uyushmalar atamasining ma'nosi turg'un so'z birikmalarining ma'nosidan keng. Chunki turg'un uyushmalarga *yog' tushsa yalaguday, qovog'idan*

qor yog'adi kabi qo'shilmalar bilan birga *kuchiga kuch qo'shildi*, *zangori kema kapitani*, *viloyat paxta banki*, *Termiz davlat universiteti*, *Termiz akademik litseyi* kabi turg'un uyushmalar ham kiradi.

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, ularning barchasi turg'un uyushmalar, lekin ularning ma'nolarida farq bor: bu uyushmalarning ba'zilar o'z ma'no-larida bo'lsa, ba'zilar ko'chma ma'nolidir. Shuning uchun bunday uyushmalar ma'no va birikuviga ko'ra ikkiga ajratiladi:

1. To'g'ri ma'noli turg'un uyushmalar.
2. Ko'chma ma'noli turg'un uyushmalar.

To'g'ri ma'noli turg'un uyushmalar. Turg'un uyushmalarning bu turi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning birikuvidan tuzilib, bir sintaktik-semantik butunlikni, yaxlitlikni tashkil qilgan lug'aviy birliklardir. Bu uyushmalarning xarakterli tomoni shundaki, uyushma tarkibidagi komponentlar o'zaro bog'lanib, bir butunlikni tashkil qiladi va nominativ ma'no ifodalovchi turg'un birikmalardan iborat bo'ladi.

To'g'ri ma'noli turg'un uyushmalar sirasiga qo'shma so'zlar, leksikalizatsiyalashgan so'zlar va birikma atamalarni kiritish mumkin.

1. ***Qo'shma so'zlar***. Ma'lumki, so'z yasash turlaridan biri yasamalarni leksik-sintaktik usul bilan hosil qilishdir. Bunda yangi so'zning hosil bo'lishi so'z birikmasi va ba'zan ayrim gaplardagi elementlarning tamoman qo'shib ketib, bir butunlik hosil qilishidir: *u qadar*, *o'zi bilarmon*, *bari bir*, *bu kun* va b. Bu kabi so'zlarni to'g'ri ma'noli turg'un uyushmalar qatoriga kiritilishining sababi, ular tashqi tomondan bog'li – turg'un, barqaror xususiyatga ega bo'ladi. Masalan, *temir yo'l*, *devor soat* kabi erkin so'z birikmalaridan hosil bo'lgan qo'shma so'zlarning semantikasida torayish, maxsuslanish yuz berib, nominativ ma'no hosil bo'lgan. Lekin ularning tilning tayyor material bo'lishi, qurilish va semantik vazifa jihatidan ayrim so'z bilan yaqinligi ularni turg'un birikma tusiga kiritadi. (Bu haqda «**So'z yasalishi**» bahsida).

2. Leksikalizatsiyalashgan soʻzlar. Leksikalizatsiya soʻzi grekcha lexikos – «lugʻaviy» soʻzi bilan aloqador boʻlib, nemischa lexikoliszen – «bir soʻzga aylanmoq» demakdir. Leksikalizatsiyalashgan soʻzlar maʼnosi tarkibidagi komponentlar maʼnosining umumiy yigʻindisidan iborat boʻlgan, bir leksekaga aylanish darajasidagi toʻgʻri maʼnoli turgʻun uyushmalardir.

Leksik-sintaktik usul garchi soʻz yasashning maxsus usullaridan boʻlmasa ham, unga juda yaqin turadigan tiplardan biridir. Bunda yangi soʻzning paydo boʻlishi soʻz birikmasining, ayrim gaplarning, undagi elementlarning tamoman qoʻshilib ketib bir butunlik hosil qilishidir. Masalan, *hol buki* (aslida ega va kesim), *oʻzi bilarmon, bari bir, u qadar* kabi. Koʻrinadiki, bunday yasash frazeologiya bilan ham bogʻliq boʻlib, yangi soʻz yasash soʻz birikmalari va gaplarni leksikalizatsiya qilish natijasida paydo boʻladi. Bunday birikmalar tarkibidagi komponentlar maʼnosi koʻchma boʻlmaganligi uchun frazeologiya emas, balki yangi yasalmi hosil qiladi. Bunday leksik yasalmalar ham hali toʻla birikmagan holda toʻgʻri maʼnoli turgʻun uyushma-larni tashkil qiladi.

3. Birikma atamalar. Toʻgʻri maʼnoli turgʻun iboralarning yana bir turi birikma atamalardir. Iboralarning bu turini birikma atamalar deb nomlani-shiga sabab ularning maʼlum darajada termin (istiloh)larga yaqinligidir, sababi birikma atamalar ham terminlar kabi birikma holda bir tushuncha ifodalaydi. Birikma atamalardan kelib chiqadigan umumiy tushuncha uning tarkibidagi komponentlar maʼnosi bilan bogʻliq boʻlib, unda kesim boʻlak tushuncha mohiyatini bildiradi va tobe boʻlak uning nimaga xoslanganligini belgilaydi yoki maʼno moʻljallangan tushuncha hajmigacha torayib boradi. Masalan, *agrar masala, ishlab chiqarish boshqarmasi, «Oʻzbekiston ovozi», «Xalq soʻzi»* kabi iboralarda birikma atamasining maʼno mohiyati hokim boʻlakda boʻlib, tobe boʻlaklar esa uning nimaga taalluqli ekanligini koʻrsatib keladi.

“Oʻzbek tili praktikumi” nomli kitobda esa frazemalar haqida quyidagivha maʼlumotlar keltiriladi:

Frazemalar ikki turga boʻlib oʻrganiladi:

- 1) frazeologik butunlik,
- 2) frazeologik chatishma.

I. Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko'chma ma'no ifodalaydigan frazemalarga frazeologik butunliklar deyiladi.

Masalan:

1. Bilib quying. Ish og'ir. Belni mahkam bog'lamasangiz, qiyin bo'ladi (O.Yoqubov).

2. Ayol kipshga ho'l ko'tarish erkakning ishi emas (R.Fayziy).

II. Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazemalarga frazeologik chatishmalar deyiladi.

Masalan:

1. Qishki sessiyani yaxshi yakunladik, lekin bu hali - hamir uchidan patir (P.Qodirov).

2. Odamlar qo'ltig'idan tarvuzlari tupshib, qishloqqa qaytishdi (M.Ismoiliy).

Frazeologizmlarning eng asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Frazemaning tarkibida ikki yoki undan ortiq leksema qatnashgan bo'ladi.
2. Frazema yaxlit bir lug'aviy ma'noni ifodalaydi.
3. Frazemaning tarkibidagi so'zlar uz leksik ma'nolarini yo'qotgan bo'ladi.
4. Frazema turgun birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimik holatda bo'ladi.
5. Frazemani faqat yaxlitligicha almashtirish mumkin.
6. Frazema gapning tarkibida yaxlitligicha bir sintaktik vazifada keladi.
7. Frazemani boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, yaxlitligicha tarjima qilinadi.¹¹

Endi esa iboralar orasida hosil bo'luvchi shakl va ma'no munosabatlarini o'rganib chiqamiz.

¹¹ O'zbek tili praktikumi 63

Frazeologik polisemiya. Bittadan ortiq ma'noni anglatadigan til birliklariga xos xususiyat bo'lib, iboralarning ham talay qismida uchraydi. Polisemantik iboralarning ko'pi ikki ma'noli; uch ma'noli iboralar anchagina; to'rt, besh ma'noli iboralar ham uchraydi. Masalan, bosh(iga) qilich kelsa ham iborasi bitta ma'noni, aql(i) etadi iborasi ikkita ma'noni, bo'yin(iga) qo'yimoq iborasi uch ma'noni; kulga olmoq iborasi esa to'rt ma'noni anglatadi (lug'atga qarang).

Frazeologik polisemiya ham, xuddi leksik polisemiyada bo'lganidek, bosh ma'no va yasama (hosila) ma'no farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma'no to'g'ri ma'noga, hosila ma'no esa ko'chma ma'noga teng; frazeologik polisemiyada, bundan farqli ravishda, bosh ma'no ham ko'chma (obrazli) ma'no bo'ladi, chunki har qanday frazeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.

Ko'p ma'noli iborada uning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Ba'zi iboralarning ma'nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o'tamaydi, har biri o'zicha shakllangan bo'ladi, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug'iladi. Masalan, ikki qo'l(ini) burn(iga) tiqib iborasi ikki ma'noli: 1) «quruqdan-quruq, evaziga hech narsa olmaydi, 2) «bekorchi bo'lib, biror foydali mehnat bilan shug'ullanmay». Bu ma'nolar o'zaro bog'lanmaydi, chunki asosida har xil obraz, boshqa-boshqa voqelik yotadi: birinchisida band qo'l bilan borib (nimadir olib borib), bo'sh qo'l bilan qaytish, ikkinchisida esa qo'lni biror yumush bilan band qilmaslik.

Frazeologik ma'nolarning bir-biridan o'sib chiqmaganligini ba'zi ibora tarkibidagi so'z-komponentlarning boshqa-boshqa leksik ma'noda qatnashuvi bilan izohlash mumkin. Masalan, xayol(iga) kelmoq iborasi ikki ma'noli: 1) «o'ylanmoq, idrok qilmoq, fahmlamoq», 2) «xotirasida tiklanmoq». Bu ibora tarkibidagi xayol so'zi birinchi frazeologik ma'noda «o'y, fikr» ma'nosi bilan, ikkinchi frazeologik ma'noda esa «xotira» ma'nosi bilan qatnashgan.

Frazeologik sinonimiya. Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib

bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no uzanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'ladi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan, er bilan yakson bo'lmoq — er bilan yakson qilmoq iborasi kulini ko'kka sovurmoq — kulini ko'kka sovurildi iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi («butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq»). Bu sinonimlar, boshqa belgi-xususiyatlardan qat'i nazar, ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, bir og'iz; bir shingil; bir chimdim sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi: so'zlash organi; bir bosh uzumning qismi; chimdib olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun iboralarning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, «butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha» ma'nosini anglatadigan ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyruqqacha iboralari o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q.

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, jon(i)ni hovuchlab va yurag(i)ni hovuchlab — sinonim iboralar: bir leksik komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponenti esa boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan va bular o'zaro sinonim emas. Ko'ngil(i)ga tugmoq bilan yurag(i)ga tugmoq o'zaro bir iboraning variantlariga teng, chunki bir leksik komponent ayni shu so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlar esa o'zaro sinonim.

Sinonimiya — ma'no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik ibora qatnashsa, iboradan emas, balki konkret frazeologik ma'nodan kelib chiqish lozim. Chunki har bir frazeologik ma'no o'zicha sinonimga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, monosemantik tan olmoq iborasiga polisemantik (uch ma'noli) bo'yn(i)ga olmoq iborasi birinchi ma'nosida sinonim bo'ladi. Bu uch ma'noli iboraning ikkinchi ma'nosiga sinonim yo'q, ammo uchinchi ma'nosiga zimma(si)ga olmoq iborasi birinchi ma'nosida sinonim (keyingi ibora uch ma'noli bo'lib, qolgan ikki ma'nosiga sinonim yo'q).

Sinonimik munosabatda qatnashuvchi (bir sinonimiya uyasiga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko'pchilik uyalar ikki sinonimli; uch sinonimli uyalar ham anchagina; to'rt iborani birlashtiruvchi uya ham bor. Masalan, ta'sir(i)ni etmoq iborasi qatnashadigan uya ikki sinonimdan, bir eshitkda bosh ko'tarmoq iborasi qatnashadigan uya uch sinonimdan, es(i)ga tushmoq iborasi qatnashadigan uya esa to'rt sinonimdan iborat.

Bir uyaga birlashuvchi frazeologik sinonimlar nutqda oz-ko'p ishlatilishi jihatdan ham farqlanadi. Masalan, yuqorida ta'kidlangan to'rt sinonimli uyada ularning nutqda uchrash nisbati shunday: 50 : 7 : 3 : 1 (to'plangan faktik materialdagi miqdori: 250 : 35 : 15 : 5).¹²

Frazeologik antonimiya. Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, polisemiyada bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordam beradi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson: savol bermoq va javob qaytarmoq;

¹² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар, 1992. – 12 б.

erga urmoq va ko'kka ko'tarmoq kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so'z-komponentlar, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so'z-komponentlar o'zaro antonim. Quyidagi antonim iboralar tarkibida qatnashgan birinchi leksik komponentlar — ayni bir so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim so'zlar: yurag(i) keng va yurag(i) tor. Boshqa bir misol: ko'ngil(i) joyiga tushdi va yurag(i)ga g'ulg'ula tushdi. Bu antonim iboralar tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchisi ayni bir so'z, birinchisi o'zaro sinonim, ikkinchisi esa o'zaro ma'no munosabati hosil qilmaydi.

Sinonimiyada bo'lgandek, antonimik munosabat ham polisemantik iboralarda har bir ma'noga nisbatan alohida belgilanadi.

Frazeologik paronimiya. Iboralar orasida, shaklan teng kelishdan tashqari, shakily yaqinlik hodisasi ham bor. Shu asosda frazeologik paronimlar va frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin.

Ba'zan iboralar o'zaro leksik tarkibidagi bir so'z-komponenti bilangina farq qiladi, shu farqli so'z-komponentlar ham bir-biriga o'xshash bo'ladi. Ana shunday shakily yaqinlikka ega ikki iboraga frazeologik paronimlar deyiladi. Masalan, yetti uxlab tushiga kirmaslik va yetti uxlab tushida ko'rmaslik; yuragi tars yorilib keta yozdi va yuragi qoq yorila yozdi kabi.¹³

Ikki ibora leksik tarkibi jihatidan aynan bir xil bo'lib, grammatik tarkibi jihatdan farqlanib turishi mumkin. Bunday iboralarga frazeologik paraformalar deyiladi. Masalan, joni kirdi – jonini kirgizmoq iborasidan grammatik tarkibida egalik affiksining yo'qligi bilangina farqlanadi.

Bob bo'yicha xulosa

Mazkur bobda frazeologik birliklar orasidagi semantik munosabatlar — sinonimiya, antonimiya va omonimiya hodisalari har tomonlama tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, frazeologik birliklar nafaqat lug'aviy ma'no ifodalash

¹³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар, 1992. – 14 б.

vositasi, balki tilning obrazlilik, ta'sirchanlik va ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim qatlam hisoblanadi.

Avvalo, frazeologik sinonimiya hodisasi asosida bir xil yoki yaqin ma'noni ifodalovchi iboralarning mavjudligi aniqlanib, ularning nutqda qo'llanish darajasi, variantlilik xususiyati va semantik nozikliklari ochib berildi.

Shuningdek, frazeologik antonimiya hodisasi iboralar orasidagi qarama-qarshi ma'no asosida yuzaga kelishi bilan izohlandi. Antonimik iboralar tarkibidagi leksik komponentlar ba'zan to'liq, ba'zan qisman antonim bo'lishi mumkinligi, ayrim hollarda esa umumiy obraz asosida qarama-qarshilik yuzaga kelishi aniqlandi. Bu holat frazeologik ma'no yaxlit holda anglashilishini va komponentlar alohida emas, balki bir butun tizim sifatida qaralishini talab etadi.

Bundan tashqari, frazeologik omonimiya hodisasi shaklan bir xil, ammo ma'nosi turlicha bo'lgan iboralar orqali namoyon bo'lishi yoritildi. Omonim iboralarning yuzaga kelishida leksik komponentlarning o'rni, ularning turli ma'no qatlamlarida ishtirok etishi hamda obraz asosida farqlanishi muhim ekanligi asoslab berildi.

Umuman olganda, frazeologik birliklar orasidagi sinonimik, antonimik va omonimik munosabatlar til tizimining boyligi va rang-barangligini namoyon etadi. Ularni o'rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nutq madaniyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoladi.

II BOB. FRAZEOLOGIZMLAR VA ULARNING USLUBLARDA QO'LLANILISHI VA LEKSIKOGRAFIK AHAMIYATI

2.1 Iboralar keng qo'llaniluvchi nutq uslublari

Tilshunoslikning frazeologiya sohasi so'zga semantik jihatdan ekvivalent bo'ladigan turg'un so'z birikmalari – ma'no hamda struktura jihatidan bir butun gapga to'g'ri keladigan turg'un iboralarni o'rganish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tekshirish bilan shug'ullanadi. Frazeologizmlar so'zlar kabi tilning

lugʻaviy birliklarini tashkil etuvchi, koʻp uchraydigan, oʻtkir maʼnoli, nutqda tez-tez takrorlanib turadigan barqaror soʻz birikmalaridir. Bular oʻzlarining ifodalaydigan maʼnolariga koʻra har doim tayyor holda qoʻllaniladigan va bir butun holda ayrim soʻzlarga toʻgʻri keladigan barqaror soʻz birikmalari sanalsa ham, baʼzan butun bir gapga toʻgʻri kelishi ham mumkin. Frazzeologiya tilda uzoq davrlardan buyon bir qolipga kelib qolgan, nutq jarayoniga xuddi soʻzlar kabi tayyor holda kiritiladigan barcha turgʻun soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi. Shuning uchun u yoki bu iborani frazeologiya tarkibiga kiritishda ularning soʻzga yoki gapga ekvivalent boʻlishiga qarab emas, balki ular fikrlashda tayyor holda olinadimi yoki nutq soʻzlanayotgan paytda hosil qilinadimi – masalaning ana shu tomoniga alohida eʼtibor berish kerak. Frazzeologik iboralarni turli tomondan oʻrganish va unga har tomonlama yondashish, uning xususiyatlarini ochish, umumlashtirish yangidan-yangidan iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi. Frazzeologik iboralarning leksik-semantik xususiyatlarini oʻrganish bilan birga, ularning grammatik qurilishi, komponentlar tarkibi, ularning oʻzaro bogʻlanishi, gapdagi vazifasi, mavjud grammatik kategoriyalarga munosabatini aniqlash ham ularning umumiy xususiyatlarini koʻrsatishda muhim ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda frazeologizmlarni aniqlashda ularning tayyor holda nutqda qoʻllanilishi, ifodaliligi, tarjima qilinmasligi kabi belgilariga asoslaniladi. Lekin bu belgilar frazeologik iboralarning ichki hamda tashqi sintaktik aloqa va munosabatlarini koʻrsatmaydi. Frazzeologizmlarni aniqlashda uni til sistemasiga kirituvchi tashqi munosabatlar ham hisobga olinishi kerak. Bu munosabatda frazeologik ibora kontekstdagi boshqa erkin soʻzlar bilan grammatik aloqaga kirishadi, baʼzan bu munosabat shu darajada boʻladiki, sintaktik planda bu soʻz frazeologik iboradan ajratilmay, uning qatorida olib qaraladi. Frazzeologiya mustaqil fan boʻlib ajralib chiqqanidan buyon oʻtgan nisbatan qisqa vaqt ichida frazeologik birliklar turli jihatlardan oʻrganildi. Ularning semantikasiga, grammatik qurilishiga, sintaktik vazifasiga, stilistikasiga oid qator ilmiy izlanishlar yuzaga keldi.

Yuqorida iboralarning badiiy uslubda ishlatilishini misollar vositasida ko‘rib chiqdik. Endi iboralarning publisistik uslubda ishlatilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek tilshunosligida publisistik uslub T.Qurbonov tomonidan maxsus o‘rganildi. Bu uslub OAV, xususan, gazeta, jurnal, radio, televideniye material-lari uslubidir. Tilshunoslik va jurnalistikada “publisistika janrlari”, “gazeta janrlari” terminlari hozirgi vaqtda kam ishlatilmoqda. Adabiyotshunoslikda ham “publisistika janrlari” terminining qo‘llanishi mustahkam o‘rnini egallagan. Lekin o‘zbek tilshunosligida “gazeta janrlari” termini hozirgacha o‘zining aniq ifodasini, obyektini topgan emas, u “publisistika janrlari” termini bilan birga parallel qo‘llanmoqda. Yana bir muammo shundaki, gazeta materiallari janrlar bo‘yicha aniq o‘z tasnifiga ega emas. O‘zbek tilshunosligi va jurnalistikasidagi mavjud adabiyotlarda ular turlicha miqdorda umumiy tarzda sanaladi, xolos. Gazeta materiallarini janrlar bo‘yicha guruhlariga ajratish e‘tibordan hamon chetda qolib kelmoqda.

Biz iboralarni asosan ommabop maqolalarda kuzatamiz, chunki ularning ko‘pchiligi umumxalq tilidan olinib yoziladi. Masalan gazeta.uz saytidagi quyidagi maqolaga diqqat qaratamiz:

“Qozog‘istondagi ikkihokimlikning intihosi va ODKB debyuti

*Tinch namoyishlarning ommaviy tartibsizliklarga aylanishi dialog tuza olmagan jamiyat va hokimiyat o‘rtasida **chuqur jarlik mavjudligini** anglatadi. Xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassisi Yuriy Saruxanyan Qozog‘istondagi siyosiy inqiroz haqida.”* Bu yerda haqiqiy ma‘nodagi chuqur qilib qazilgan jarlik emas, balki xalq tilida mavjud ibora ma‘nosi anglashiladi. Ya‘ni ma‘lum bir muammo borligini anglatadi.

Xususiy mulkning himoyalanganligi — qashshoqligimiz sabablaridan biridir

Agar bugungi o‘quvchi sizdan kelajakda o‘qituvchilarning daromadini qanday oshirish mumkinligi haqida so‘rasa, javobi oddiy — buning uchun

*iqtisodiyot o‘sishi kerak. Kelajakda iqtisodiyot o‘sishi uchun nima qilish kerak, degan savolga ham javob tayyor — bu bugungi investitsiya darajasiga bog‘liq. Biz kabi rivojlanayotgan davlat uchun aholi daromadlarining o‘sishi deyarli tamoman iqtisodiy o‘lishga bog‘liq, o‘z navbatida iqtisodiy o‘lish — bu shunchaki xususiy investitsiyalarning ortda qolgan ko‘rsatkichidir. Xo‘sh, bizda investitsiyalar bilan ishlash qanday yo‘lga qo‘yilgan? Taassufki, javob **hafsalangizni pir qiladi.***

So‘zlashuv uslubida iboralarning qo‘llanilishi – kundalik hayotda eng ko‘p qo‘llaniladigan nutq uslubi bo‘lib, odamlar o‘zaro muloqot jarayonida fikrni erkin, tabiiy va tez ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu uslubda iboralar (frazologizmlar) juda faol ishlatiladi, chunki ular nutqni qisqa, lekin mazmunli va ta’sirchan qilib yetkazish imkonini beradi.

So‘zlashuv uslubining asosiy xususiyati uning soddaligi va tabiiyligidir. Shu sababli iboralar bu uslubda tayyor holda, hech qanday murakkab grammatik shakllarsiz ishlatiladi. Insonlar kundalik suhbatda ko‘pincha o‘z fikrini oddiy so‘zlar bilan emas, balki obrazli iboralar orqali ifodalaydi. Bu esa nutqni jonli, hissiy va tushunarli qiladi.

Masalan, “juda xursand bo‘ldi” deyish o‘rniga “ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi” iborasi ishlatilsa, fikr yanada ta’sirchan chiqadi. Xuddi shuningdek, “qo‘rqib ketdi” o‘rnida “yuragi orqaga tortdi” iborasining qo‘llanilishi so‘zlovchining holatini kuchliroq ifodalaydi. “Juda tez” ma’nosida esa “ko‘z ochib yumguncha” iborasi ishlatiladi.

So‘zlashuv uslubida iboralar faqat ma’no ifodalash uchungina emas, balki suhbatga hissiy bo‘yoq berish, kinoya, hazil yoki samimiylikni ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, “boshingni qotirma” iborasi birovni ortiqcha o‘ylantirmaslik yoki bezovta qilmaslik ma’nosida ishlatiladi. “Qo‘li uzun” iborasi esa ko‘pincha salbiy ma’noda – birovning o‘g‘rilik yoki noqonuniy yo‘l bilan ish yuritishini bildiradi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, so‘zlashuv uslubida iboralar erkin qo‘llanadi va ko‘pincha qisqartirilgan yoki o‘zgartirilgan shaklda ham uchrashi mumkin. Bu

esa og‘zaki nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Biroq iboralarni noto‘g‘ri yoki noo‘rin ishlatish nutqning tushunarligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, so‘zlashuv uslubida iboralar nutqni yanada tabiiy, ta‘sirchan va jonli qiladi. Ular kundalik muloqotda insonlarning fikrini aniq va obrazli yetkazishga xizmat qiladi hamda nutq madaniyatining muhim qismini tashkil etadi.

Badiiy uslubda iboralaning qo‘llanilishi – tilning eng ta‘sirchan va obrazli ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, asosan adabiy asarlarda, she‘riyatda, hikoya va romanlarda qo‘llaniladi. Bu uslubning asosiy vazifasi o‘quvchida estetik zavq uyg‘otish, voqea-hodisalarni jonli tasvirlash va qahramonlarning ichki kechinmalarini chuqur ochib berishdan iboratdir. Badiiy uslubda iboralar juda muhim o‘rin tutadi, chunki ular matnga obrazlilik, emotsionallik va ta‘sirchanlik bag‘ishlaydi.

Badiiy uslubda iboralar oddiy ma‘noda emas, balki ko‘chma ma‘noda keng qo‘llaniladi. Yozuvchi yoki shoir iboralar yordamida qahramonning ruhiy holatini, tabiat manzaralarini yoki voqeaning dramatik holatini yanada yorqin ifodalaydi. Shu sababli iboralar badiiy matnning estetik qiymatini oshiradi.

Masalan, “juda qo‘rqdi” degan oddiy fikr o‘rniga “yuragi muzlab ketdi” iborasi qo‘llansa, qahramonning qo‘rquv holati yanada kuchli va jonli tasvirlanadi. Yoki “juda g‘azablendi” o‘rniga “ko‘zlarida olov yonardi” iborasi ishlatilsa, uning ichki hissiyoti aniqroq ifodalanadi. “Juda chiroyli gapirdi” ma‘nosida esa “tilidan asal tomardi” iborasi nutqqa badiiy joziba qo‘shadi.

Badiiy uslubda iboralar faqat hissiyotlarni ifodalash uchungina emas, balki tasvirni kuchaytirish va o‘quvchining tasavvurini boyitish uchun ham xizmat qiladi. Masalan, “dardi ichida qaynadi” iborasi insonning ichki iztirobini chuqurroq anglatadi, “yelkasiga tog‘ tushgandek” iborasi esa og‘ir ruhiy holatni juda kuchli tasvirlaydi.

Shuningdek, badiiy uslubda iboralar personajlar nutqini individuallashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Har bir qahramonning nutqida ishlatilgan iboralar uning

xarakterini, dunyoqarashini va ruhiy holatini ochib beradi. Bu esa badiiy asarning hayotiyligini va ishonarliligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy uslubda iboralar nutqning eng muhim ifoda vositalaridan biri bo‘lib, ular orqali asar yanada jonli, ta’sirchan va estetik jihatdan boy bo‘ladi. Iboralar badiiy matnda obraz yaratish, hissiyotlarni kuchaytirish va o‘quvchini voqealar ichiga chuqurroq olib kirish vazifasini bajaradi.

Publitsistik uslubda iboralarning qo‘llanilishi – ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar, radio va televideniye chiqishlari hamda ijtimoiy-siyosiy nutqlarda keng qo‘llaniladigan nutq uslubidir.¹⁴ Bu uslubning asosiy maqsadi jamiyatga ma’lumot yetkazish bilan birga, o‘quvchi yoki tinglovchini ma’lum fikrga ishontirish, uni faol harakatga undash va ijtimoiy masalalarga befarq bo‘lmaslikka chaqirishdan iboratdir. Shu sababli publitsistik uslubda iboralar muhim ta’sirchan vosita sifatida keng qo‘llaniladi.

Publitsistik uslubda iboralar nutqqa emotsional va ekspressiv bo‘yoq beradi. Ular orqali muallif yoki notiq fikrini oddiy bayon qilish bilan cheklanib qolmay, balki uni kuchaytiradi, ta’sirini oshiradi va o‘quvchida ma’lum hissiy munosabat uyg‘otadi. Bu uslubda iboralar ko‘pincha ijtimoiy mazmuni kuchaytirish, muammoga e’tibor qaratish yoki biror g‘oyani targ‘ib qilish uchun ishlatiladi.

Masalan, “birgalikda ishladi” degan oddiy ifoda o‘rniga “yelkama-yelka turib kurashdi” iborasi ishlatilsa, bu hamjihatlik va birdamlik g‘oyasini yanada kuchliroq ifodalaydi. “Faol ishtirok etdi” o‘rniga “qo‘l qovushtirib o‘tirmadi” iborasi ishlatilishi esa insonning tashabbuskorligi va harakatchanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, “intilmoqda” ma’nosida “ko‘z tikdi” iborasi qo‘llanilib, maqsad sari qat’iy harakatni ifodalaydi.

Publitsistik uslubda iboralar ko‘pincha jamiyatdagi dolzarb muammolarni yoritishda ham muhim o‘rin tutadi. Ular orqali muallif o‘quvchini fikrlashga undaydi, unga ta’sir qiladi va muayyan ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishga harakat

¹⁴ Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili 11-sinf darslik. – Toshkent: 2018. – B. 77.

qiladi. Bu uslubda iboralar nafaqat tasviriy vosita, balki targ'ibot va ta'sir vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, publitsistik uslubda iboralar haddan tashqari ko'p ishlatilsa, matnning tabiiyligi yo'qolishi mumkin. Shu sababli ular o'rinli va maqsadga muvofiq qo'llanilishi lozim. To'g'ri tanlangan ibora esa matnning ta'sir kuchini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, publitsistik uslubda iboralar muhim stilistik vosita bo'lib, ular orqali fikrlar yanada ta'sirchan, ishonchli va emotsional tarzda ifodalanadi. Bu esa o'quvchi yoki tinglovchining e'tiborini jalb qilish va uni muayyan g'oyaga yo'naltirish imkonini beradi.

Rasmiy-idoraviy uslubda iboralarning qo'llanilishi – davlat tashkilotlari, hujjatlar, qarorlar, buyruqlar, arizalar, shartnomalar va rasmiy yozishmalarda qo'llaniladigan nutq uslubidir. Bu uslubning asosiy vazifasi aniq, lo'nda va tushunarli axborot yetkazishdan iborat bo'lib, unda emotsionallik va obrazlilik deyarli bo'lmaydi. Shu sababli rasmiy uslubda iboralar juda cheklangan holda ishlatiladi.

Rasmiy uslubda asosiy e'tibor aniqlik, mantiqiylik va standartlikka qaratiladi. Har bir jumla bir ma'noni aniq ifodalashi kerak, shuning uchun ko'chma ma'noli iboralar yoki obrazli ifodalar odatda qo'llanilmaydi. Biroq ayrim holatlarda umumiy, rasmiylashgan iboralar hujjat tilini soddalashtirish va standartlashtirish uchun ishlatiladi.

Masalan, “ko'rib chiqildi”, “qaror qilindi”, “amalga oshiriladi”, “e'tiborga olinadi” kabi iboralar rasmiy hujjatlarda tez-tez uchraydi. Bu iboralar hissiy bo'yoqqa ega emas, balki aniq jarayon yoki holatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular rasmiy uslubning o'ziga xos standart ifoda birliklari hisoblanadi. Rasmiy uslubda iboralar asosan tayyor, barqaror birikmalar sifatida qo'llaniladi. Masalan, “ko'zda tutiladi” iborasi reja yoki qarorda biror masalaning hisobga olinganini bildiradi. “E'tiborga olinadi” esa ma'lum masala yoki taklif rasmiy ravishda ko'rib

chiqilishini anglatadi. Bunday iboralar matnni qisqa va tushunarli qilishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, rasmiy uslubda iboralarni ortiqcha yoki noto'g'ri ishlatish matnning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bu uslubda iboralar faqat zarur hollarda va standart shaklda qo'llaniladi. Xulosa qilib aytganda, rasmiy-idoraviy uslubda iboralar juda cheklangan miqdorda ishlatiladi va ular asosan aniq, standart va betaraf ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa rasmiy matnlarning tushunarli, qisqa va tartibli bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ushbu uslubda iboralar boshqalariga qaraganda nisbatan kamroq qo'llaniladi.

Frazeologizmlar asrlar davomida taraqqiydashib, xalqning turmush tarzini, o'tmishini, madaniyatini ochib beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Frazeologizmlarning takomillashib, umumtil leksikasida o'rnashib borishi ularni har tomonlama tadqiq qilish imkonini beradi. Grammatik shakllangan, tilda turg'un, barqaror yashovchi, obrazlilikni ifodalovchi bu kabi birliklar nutqimizni yanada jozibali qilish uchun xizmat qiladi. Ba'zida frazeologizmlar orqali yangi obrazlarni yuzaga keltirish va shu orqali yangi tushunchalarni ifodalash ihtiyoji yuzaga keladi. Ayrim mualliflar badiiy asar yozish chog'ida umumtilda shakllangan frazeologizmlarning tashqi hamda ichki jihatlarini o'zgartirish, obrazlilikni oshirish maqsadida boshqa bir variantdosh yoki sinonim frazeologik birliklarni kashf qilishadi. Bu narsa tilimizning yanada boyishiga yordam beradi. Umumtildagi frazeologizmning obrazlilikini oshirish, ta'sirchanlikka erishish, nutqni ko'rkamlashtirish maqsadida yangi frazeologik birikma yaratiladi. A.M.Babkin "muallif frazeologizmlari nafaqat milliy til frazeologik boyligi, shuningdek, adabiy tilning stilistik imkoniyatlarini ham ifodalovchi asosiy omillardan biridir" deb e'tirof etadi. Olim B.Yo'ldoshevning individual muallif frazeologizmlar haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Tildagi frazeologizmlarning taraqqiyoti va boyishi, tilning boshqa birliklarida bo'lganidek, faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo'lishi bilan emas, balki mavjud iboralarning semantik, grammatik va funksional jihatdan

yangilanishi asosida ham sodir bo‘ladi”. Muallif iboralarning hosil bo‘lishi umumtildagi frazeologizmlarning ifoda va mazmun tomoni yoki ba’zan har ikki jihatning o‘zgarishi natijasida vujudga keladi.

Mualliflar umumtil frazeologizmining leksik tarkibini, semantik ifodasini yoki leksik-semantik xususiyatini o‘zgartirish asosida yangi frazeologizmlarni shakllantirishi mumkin. Shuning uchun ham muallifli frazeologizmlar shakllanishning quyidagi uch xili farqlanadi:

- leksik o‘zgarishli;
- semantik o‘zgarishli;
- v) leksik-semantik o‘zgarishli bo‘ladi.

Masalan, **bayt-u g‘azal-u o‘qimoq-dard-hasrat bayon qilmoq** iborasi Abdulla Qahhor tilida **bayt-u g‘azal aytmoq** shaklida o‘zgartirib qo‘llanilgan bo‘lib, leksik o‘zgarishga misol bo‘ladi. *“Zulfiqorovning xotini uyidan haydab yuboribdi. Qalandarovning nomiga aytmagan bo‘lsa ham, **“suyangan tog‘i”** sha‘niga qancha baytu g‘azallar aytibdi”* (A.Qahhor. “Sinchalak”).

Ichi (ichagi) uzilib ketmoq – frazeologizmi umumtilda juda ko‘p kulmoq ma’nosini berish maqsadida qo‘llaniladi, lekin O‘.Hoshimov o‘z asarida uni och qolmoq ma’nosida ishlatish orqali semantik o‘zgarishli frazema hosil qiladi: - *Bora qol, qizim, hammasining ichi uzilib ketgandir* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”). Umumxalq tilidagi **sir boy bermaslik** iborasi yozuvchi Shuhrat ijodida **tilini bermaslik** ko‘rinishida uchraydi. Bu leksik-semantik o‘zgarishga uchragan frazema hisoblanadi.

- *Albatta-albatta! – shoshib qoldi Mirsalim. Lekin **tilini bermadi*** (Shuhrat). Shuningdek, tilimizdagi **o‘pkasini qo‘ltiqilamoq, o‘pkasini qo‘lga olib** iboralari mavjud. Uning ma’nosi shoshqaloq, hovliqma kishilarga nisbatan qo‘llaniladi. Adib T.Po‘latning «Ichkuyov» asarida u **o‘pkasini cho‘pga ilmoq** tarzida o‘zgartirilgan. *Hamma joyda siz haqingizda mish-mish gap. Javloniy esa **o‘pkasini cho‘pga olgan.***

Ma'lum bir muallif frazeologizmlarning shakllanishida yangi obrazlarni yuzaga keltirish, yangi ma'no hosil qilish, ta'sirchanlikni yanada oshirish maqsad qilingan bo'ladi. Misol uchun yozuvchi S.Ahmad "*o'z o'tiga o'zi yonib yotmoq*", "*miyasini parmalab turmoq*", "*ota er-xotin orasiga qorabotir bo'lib tushdi*" kabi yangi tarkibli frazeologizm hosil qilgan. Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, yozuvchi yangi qo'llayotgan frazeologizmni umumtildagi frazemadan tamoman uzoqlashgan holda qo'llay olmaydi. Ya'ni umumtildagi frazema individual muallif frazeologizmi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki o'quvchi yangi shakllangan frazeologizmning ma'nosini fahmlay olmaydi. Masalan, yozuvchi Shuhrat umumtildagi *yulduzi juft tushgan* frazeologizmini *yulduzi o'ng kelgan* tarzida qo'llab, yangi strukturali frazeologizmini yaratgan. Misol uchun, umumtildagi *ko'ngli g'ash bo'ldi* iborasini "*Shuhrat ko'nglida qori erisa ham muzi qoldi*" shaklida o'zgartiradi. Bu orqali ma'noni yanada kuchli va obrazli qiladi. Yozuvchilar yangi frazeologizmlarni yaratganda xalq tilidagi frazeologik birliklarning tarkibini qisqartirish, kengaytirish yoki butunlay iborani o'zgartirish orqali ham shakllantiradi. Masalan, yozuvchi R.Fayziy umumtildagi "*achchig'i burnining uchida turmoq*" frazeologizmini "*burnining uchida*" shaklida qisqartirib qo'llagan.

Toshpo'latovning jahli chiqib, qizarib-bo'zarib ketgan edi. Burnining uchida turadi-ya, erga qarab xotin, degan gap bor. U ham sening obro'yingni qiladi-da, shuniyam tushunmadingmi deya suv sepib qo'ydi (R.Fayziy). Bundan tashqari nonini tuya qilmoq-tuya qilmoq ; ona suti og'zidan ketmagan – ona suti og'zida, tegirmonga tushsa butun chiqmoq – tegirmondan butun chiqmoq, tepa sochi tikka bo'ldi – sochi tikka bo'ldi kabi frazeologizmlarning qisqartirilgan shakli ham kengaytirilgan iboralar beradigan ma'noni bera oladi. A.Navoiyning poetik asarlarida qo'llanilgan frazemalarini o'rgangan E.Umarov "baloyi jon bo'lmoq – baloyi jon", "bag'rini suv qilmoq (varianti: bag'rini qon qilmoq) bag'ri suv", "bag'riga tosh bog'lamoq – bag'ritosh", "ko'z ichi birla boqmoq – ko'z ichi birla", "zer-u zabar qilmoq – zeru zabar" singari to'liq va qisqargan iboralarni shoirning

frazemalardan ijodiy foydalanishi, ayrimlarini esa iboralarning Navoiy tomonidan individual-avtor iboralari deb hisoblaydi. Biroq, ehtimol, Alisher Navoiy bu kabi frazeologizm qisqarishlarini she'riy qonuniyat tufayli hosil qilgan bo'lishi ham mumkin. B.Yo'ldoshev frazeologizmlarni kengaytirishning bir qancha usullarini ko'rsatib o'tadi:

1. Iborani oddiy qo'llanishdagi so'z bilan kengaytirish usuli. Bunda iboralarning grammatik va semantik jihatdan munosabatga kirisha oladigan so'zlar bilan birgalikda kengaytiriladi: *Senga duch kelgan qizning sho'ri qursin. Og'ziga qulf, qo'liga zanjir, oyog'iga kishan solar ekansan.* (Shuhrat).

2. Ibora tarkibiga izohlovchi so'z yoki o'xshatish kiritiladi: *Qalbi vayron bo'lgan, umidlari sovun ko'pigidek sassizgina o'chgan onaning xayollari so'ngsiz edi* (Said Ahmad. "Ufq").

3. Tasdiq-inkor yo'li orqali kengaytirish.

Ushbu usulda ibora tarkibidagi ot so'z turkumidan keyin *emas* so'zi qo'shiladi: Hozir faqatgina *it emas*, eshak ham egasini tanimaydi, dilni *xufton emas*, xushnud etmoq. Ayrim hollarda frazeologizmlarning tarkibiga bir nechta so'zlarni yoki so'z birikmalarini qo'shib kengaytirish orqali ham yangi tarkibli frazeologizm hosil qilish mumkin. *Ofitserdan ko'ra soldatni yaxshi ko'radi. Arqonning kuchi qildan, armiyaning kuchi soldatdan, - deb erkalar* (Shuhrat). Yuqoridagi matnda yozuvchi **arqonning kuchi qildan** frazeologizmiga uning ma'nosiga yaqin bo'lgan **armiyaning kuchi soldatdan** frazeologizmini qo'shgan. G'.G'ulom ham ushbu holatda yangi frazeologizmlarni yaratgan: "*Shunday qilib desangiz buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi*", "*Omon uyqudan chap yonboshi bilan turdi. Qovog'ining peshayvoni tushib ketgan, to'g'ri gapga ham tersayib javob berar, mechkay kasalga uchragan bolalarday injiq edi. Xalq tilidagi siri ochilmoq va qovog'i tushib ketmoq frazeologizmlari shu tarzda hosil qilingan*".

Umumxalq tilidagi frazeologizmlarning tarkibini qisqartirish orqali ham yangi frazeologizm hosil qilish mumkin. *Puch yong'oqning narxi necha puldan bo'ldi?* - *Tsss. Devorning qulog'i bor-a.* (Shuhrat).

Ko‘rinadiki, “puch yong‘oq” komponenti qo‘llanishi bilan tildagi **“qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq”** frazeologizmiga ishora etiladi. Buni o‘quvchi darhol anglab oladi. Yozuvchi “puch yong‘oqning narxi necha puldan bo‘ldi” deyish bilan yolg‘on gap xususida fikr yuritadi¹⁵ Yangi tarkibli frazeologizm hosil qilish uchun ba‘zida frazeologizmni takror qo‘llash orqali ham shakllantirish mumkin. *Ancha yurilgach, Solijon charchadi shekilli, o‘rnidan turib, o‘tirganlardan biriga, “ma, bir oz ushlab tur arqonni” demoqchi bo‘lib og‘iz juftladi-yu, lekin og‘zidagi og‘zida, bo‘g‘zidagi bo‘g‘zida qoldi* (R.Fayziy). Yana shuni qayd etish joizki, ba‘zida bir frazeologizm bilan birga bir necha frazeologizmlarni birga qo‘llash orqali, ya‘ni darajalantirish hisobiga ham yangi muallifli frazeologizm shakllantirish mumkin: *Bular kechaoyog‘ingni bosgan edi, bugun ko‘kragingga oyoq bosib turibdi, ertaga bo‘g‘zingga oyoq qo‘yadi. O‘lasan. Jon kerakmi? Jon kerak bo‘lsa, o‘limga chap berish payida bo‘l: Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq* (A.Qahhor). Ushbu misolda *oyog‘ini bosmoq* frazeologizmi bilan birga *ko‘kragiga oyoq bosmoq, bo‘g‘ziga oyoq bosmoq* frazeologizmlarini keltirish orqali adib darajalantiryapti. Yana quyidagi gaplarda ham shu holatni ko‘rish mumkin. “O‘rgating, zora osmonga ustun, ko‘rpaga eng, hovuzga qopqoq, oshpichoqqa qin chiqarishsa kamimiz shu edi” (M.Ismoilij); “Ko‘krak kerib, yigitlik davrini endi surayotgan paytda “Soyib changal”, “Soyib asrandi”ga aylansa, bu yuziga qora kuya surtilgani, sharmandayi sharmisor bo‘lgani nomusining bukilgani. Bu qorong‘i go‘rga kirgani. Ha-da. Yigit kishining uyalgani, o‘lgani. (S.Anorboyev). Individual muallif frazeologizmlarini hosil qilishning turli xil usullarini ko‘rish mumkin. Yana bir shunday usul borki bu: frazeologizm tarkibidagi so‘zlardan birini uning o‘rniga sinonimini qo‘llash orqali hosil qilishdir. Gap tarkibidagi frazeologik birliklar o‘zidan oldingi yoki keyingi so‘z bilan munosabatga kirishganda, ba‘zan o‘sha gapga aniqlik kiritishni, o‘sha sharoitga moslashishni talab qilgan hollarda frazeologik birliklar komponentlaridan biri boshqa so‘z bilan almashtiriladi, natijada yangi individual-muallif ko‘rinishi vujudga keladi. Tildagi peshona(si)ga bitmoq frazemasida

¹⁵ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 215.

manglay(i)ga bitmoq tarzida qo'llanadi. Frazema tarkibidagi "peshona(si)ga" komponentini uning og'zaki so'zlashuv uslubiga xoslangan sinonimi "manglay(i)ga" so'zi bilan almashtirilishi frazemaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan hamda birinchi frazemaning leksik varianti vujudga kelgan: Kishilikning manglayiga bitgan shoirni//Sohibqiron Amir Temur qabul aylagay.(A.Oripov)¹⁶. Ba'zi bir mualliflar xalq og'zaki ijodi, folklor namunalaridagi frazeologik birliklarni o'z asarlarida o'zgartirib qo'llash orqali ham yangi frazeologizmlar hosil qilishadi. Masalan, Hamza, Abdulla Qahhor, Sadridin Ayniy, Said Ahmad, Cho'lpon, Fitrat, Oybek, Abdulla Qodiriy ijodiyotida bu kabi frazeologizmlarni ko'plab uchratish mumkin. "*Boshida kulfat chaqmog'i o'ynamoq*", "*boshiga jahannam ofatni ag'darmoq*", "*tirikchilik qozonining girdobida charx urmoq*" (Oybek), "*Ko'z – yurak ko'zgusi, qo'l – yurak navkari*" (M.Shayxzoda), "*O'ng qo'lim, so'l qo'lim -bari o'z qo'lim*", "*gapni tonnalab olib, gramlab sotmoq*", "*igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o'tirmoq*", "*odamning chiqiti bo'lmaydi*" (A.Qahhor), "*Dil rost bo'lsa – yuz qizil, dilga yuz ko'zgu bo'lur*" (G'.G'ulom), "*Ko'nglida qori erisa ham muzi qoladi*" (Shuhrat) kabilarni misol sifatida keltirish mumkin⁶⁴. Shunday qilib, bugungi kunda frazeologizmlar har tomonlama tadqiq etilmoqda. Ularning shakllanish va uslubiy imkoniyatlari keng bo'lib, so'z ustalari o'z asarlarida umumxalq tilidagi frazeologizmlarni mazmun va ifodaviy o'zgartirib qo'llash orqali tilning frazeologik tarkibini boyitish uchun xizmat qilishgan. Bu tilimizning yanada jozibador, ifodali va ma'noli bo'lishini ta'minlaydi.

2.1 O'zbek leksikografiyasida frazeologizmlarning o'rni

Frazeologizmlarni o'rganish va tadqiq qilish masalasi qadimdan tilshunoslarni qiziqtirib kelgan. Turli xil tillarda gaplashuvchi mamlakatlarda shaklan va mazmunan bir-biriga o'xshaydigan maqol, frazeologizmlar, idiomalar ko'pchilikni tashkil etadi. Bunday vaqtda ularni o'zga tilga tarjima qilish ehtiyoji

¹⁶ Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Фил.фан. номз. автореф. – Тошкент 2009. – Б. 20.

paydo bo‘ladi. Shu sababli frazeologik birliklarni boshqa tilga tarjima qilish uchun lug‘atlar tuzishni taqozo etadi. Frazeologizm sohasi o‘rganilar ekan tildagi frazeologizmlarni bir erga jamlab lug‘at tuzish zaruriyati yuzaga keladi. Frazeografiya bu vazifani bajaradi. Xususan, frazeografiya sohasining o‘rganilishi qadimga borib taqaladi. R.Rasulov, B.Yo‘ldoshev, H.Berdiyorovlarning yozishicha dastlabki turkcha frazeologik lug‘at 1480-yilda yozilgan. Ushbu kitobni 1936-yilda Valet Izbdak Anqarada nashr ettirgan. Frazeografiya - frazeologizmlardan lug‘at tuzishni, frazeologik birikmalar tamoyilini o‘rganuvchi soha. Rus lug‘atshunosi V.P.Berkov o‘zining ikki tilli leksikografiya muammolariga bag‘ishlangan asarida ikki tilli lug‘at yozuvida so‘z ma’nosini joylashtirishga qo‘yiladigan talablar haqida yozgan va ikkinchi tildagi bosh so‘zning semantik tuzilishi tavsifi bir tilli lug‘atdagi bilan to‘liq mos kelishi kerakligini aytib o‘tadi. Frazeologizmlar lug‘atshunoslikda XIX asrning boshida keng miqyosda o‘rganila boshlangan. Bunda u til birligi sifatida ilmiy tadqiq qilindi va alohida til birligi sifatida shakllantirildi. Aytib o‘tilganidek, frazeografiyani o‘rganish ancha oldin boshlangan va bir qancha leksikografik manbalar shakllantirilgan. Bu manbalar keyinchalik frazeologik birliklarning boshqa jihatlari bo‘yicha ilmiy ishlar qilinishi uchun samarali turtki bo‘lib xizmat qildi. Bugungi kunda jahon tilshunosligida frazeologizmlarni tarjima qilish uchun tarjima lug‘atlar ko‘plab nashr etilgan. Misol uchun, AQSh, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Buyuk Britaniya kabi yirik mamlakatlarda bir tilli, ikki tilli uch tili hamda ko‘p tilli lug‘atlardan foydalanib kelinmoqda. Rossiya davlati tarjima lug‘atlar yaratishda ilg‘or mamlakat hisoblanadi. Turli xil tillardagi frazeografiya sohasi bo‘yicha gap ketar ekan, A.V.Kunin, V.M.Mokiyenko, A.M.Melerovich, Y.F.Arsenyeva, A.Makkey, V.N.Teliya, L.K.Bayramova, I.I.Turanskiy, J.Vanin, M.B.Arnold (frazeologik ma’noning konnotativ va aksiologiya tarkibi to‘g‘risida), N.Isanbet, A.I.Molotkov, Y.N.Karaulov, Y.D.Apresyan, M.A.Aleksenko, N.F.Aleferinko, V.I.Zimin, M.I.Umarxo‘jayev, R.Makin, R.L.Kollinz (frazeologik lug‘at tuzish prinsiplari) kabi⁶⁵ olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, V.Kunin tomonidan 1968-yilda

25 mingdan ziyod frazeologik birliklar to‘plangan inglizcha-ruscha tarjima iboralar lug‘ati, shuningdek, V.V Gurevich va J.A.Dozoretsning ruscha-inglizcha frazeologik lug‘ati 2004-yilda Moskvada nashr etilgan ruscha-inglizcha lug‘ati. Mazkur lug‘atga ikki mingga yaqin frazeologizmlar kiritilgan. Hozirgi kunda ruscha-inglizcha lug‘at tarkibiga besh mingta frazeologizm kiritilgan.

Gurevichand Dozorets tomonidan 1988-yilda tuzilgan qisqa ruscha-inglizcha lug‘ati tarkibiga 1000 ta ibora kiritilgan va bu lug‘at Moskvada nashr etilgan. Ushbu lug‘at barcha kamchiliklarni chetlab o‘tgan bo‘lib, rus tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan frazeologizmlar asosida shakllantirilgan. Rus frazeografiyasiga oid yana bir yirik lug‘atlardan biri 1995-yilda L.E.Binovichning “Немецко-русский фразеологический словарь” lug‘ati hisoblanadi. Ushbu lug‘atga 15000 ta frazeologizm kiritilgan. Lug‘atning afzallik tomoni shundaki, lug‘at maqolachasida berilgan rus tilidagi izoh orqali frazeologizmning ma’nosini aniq tushunib olish uchun imkon beradi.

Keyingi yillarda frazeologizmlarni o‘rganish borasida o‘zbek tilshunosligida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda va bu masalada ko‘pgina yutuqlarga erishildi. Frazeologizmlar tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘pgina doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, monografiyalar tayyorlandi, o‘nlab maqolalar va o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi. O‘zbek tilshunosligida ilk bor bu termin tilshunoslikda M.E.Umarxo‘jev tomonidan o‘tgan asrning 70-yillarida qo‘llanilgan. M.I.Umarxo‘jayev ikki tilli frazeologik lug‘at yaratgan va bu kabi lug‘atlarni tuzishda asosiy e’tibor ekvivalent munosabatlarini tanlash deb baholaydi va olimning tadqiq qilishicha frazeologik lug‘atlar quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi: 1. Frazeografik materialni tashkil qilish metodi asosida:

- izohli;
- ideografik lug‘atlar.

Bunday lug‘atlarda frazeografik materiallar alfavit tartibida joylashtiriladi va frazeologik birliklar quyidagi prinsiplar asosida lug‘atdan joy oladi:

- birinchi komponentga asosan;

- semantik jihatdan asosiy komponentga ko‘ra;
 - grammatik jihatdan asosiy komponentga ko‘ra.
2. Frazelogizmlarni tashqi paradigmatic aloqalarining tipiga ko‘ra:
- frazeologik antonimlar lug‘ati;
 - frazeologik omonimlar lug‘ati;
 - frazeologik sinonimlar lug‘ati.
3. Frazelogik lug‘atlarni tuzishda qo‘llaniladigan tillarga ko‘ra:
- bir tili;
 - ikki tili;
 - ko‘p tili.
4. Frazelogik materialni tanlab olish prinsipiga ko‘ra lug‘atlarning quyidagi turlariga ko‘ra:
- oddiy frazeologik lug‘at;
 - maxsus frazeologik lug‘at (fe‘lli frazeologizmlar, frazeologizm-evfemizmlar
 - lug‘ati, maqol va matallar lug‘ati, juft so‘zlar lug‘ati va boshqalar).
5. Frazelogik lug‘atlarning qo‘llanilish sohasiga ko‘ra:
- maktab o‘quvchilari uchun;
 - filologik fakultet talabalari va umumiy filologlar uchun;
 - ommabop.
6. Frazelogik lug‘atlarda asosiy e‘tibor qaratiladigan frazeologik birliklarning parametrlariga ko‘ra:
- oddiy izohli;
 - etimologik va kulturologik lug‘atlar;
 - okkozinal variantli lug‘atlar.

Mazkur prinsiplardan kelib chiqib M.I.Umarxo‘jayevning 1972-yili Moskvada himoya qilingan “Принципы составления многоязычного фразеологического словаря (на материалах немецкого, русского и узбекского языков) nomli nomzodlik dissertatsiyasida nemis tili frazeologik iboralarini o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish yo‘llari ishlab chiqildi. Bular quyidagilardir:

1. To'la ekvivalentlikka ega frazeologizmlar. Bunda nemis tili frazeologizmlari bilan rus va o'zbek tili iboralari bir xil shakl bir xil leksik tarkib, bir xil obraz, bir xil frazeologik ma'no va bir xil stilistik jiloga ega.

2. Qisman ekvivalent frazeologizmlar. Olmon tili frazeologizmiga ma'nosi, stilistik bo'yog'i, obrazlilik jihatidan yaqin, lekin ba'zan leksik tarkibi va grammatik qurilishi jihatidan farq qiluvchi iboralar.

3. Ko'pchilik nemis tili frazeologizmlari analoglar yordami bilan tarjima qilinadi. Ma'nolari, stilistik bo'yoqlari yaqin iboralar bo'lishi bilan bir vaqtda ular tarkibida leksik xilma-xillik mavjud. Bundan tashqari, M.Sodiqova tomonidan 1994-yilda ikki tilli "Qisqacha Ruscha-o'zbekcha barqaror iboralar lug'ati" yaratilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun izohli hamda rasmlardan iborat bo'lgan lug'atlar yaratilgan. O'zbek frazeografiyasida, asosan, bir tilli, izohli, frazeologik lug'atlar yaratilgan. Bu ishning salmoqli qismini Sh.Rahmatullayev boshlab bergan. Olim 1992-yilda "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"ni yaratdi. Ushbu lug'atda hozirgi o'zbek tilidagi mingdan ziyod frazeologizmlarga semantik, grammatik va qisman nutqiy izohlar berib o'tilgan. Lug'at alfavit tartibida berilgan bo'lib, unda bevosita frazeologik birliklar (barcha variantlari bilan) kiritilgan. Izohlar tayanch variant ostida berilib, notayanch variantlar havola maqolachasi sifatida o'rin olgan. Mazkur lug'at frazeologik hodisalarni sistemada olib, o'zaro qiyoslab o'rganish imkoniyatini beradi.

Lug'at oxiriga unga kiritilgan iboralarning (barcha iboralarning) so'z komponentlari ko'rsatkichi ilova qilingan ¹⁷. Sh.Rahmatullayev bu lug'atga umumxalqda ko'p qo'llaniladigan iboralarni va ularning variantlarini kiritgan. Individual muallif iboralar kiritilmagan. Bundan tashqari Mahmud Sattorning "O'zbekning so'zi qiziq", B.Yo'ldoshev, K.Bozorboyevlar hammuallifligidagi "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" (1998), Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning 2001-yilda yaratgan "Ma'nolar maxzani" nomli kitoblari frazeografiya sohasining boyishiga xizmat qilgan. Yana shuni aytib o'tish

¹⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар, 1992. – Б. 2.

lozimki, o'zbek tilining 2006-2008-yillarda qayta ishlangan 5 tomlik izohli lug'atida ham iboralar va ularning ma'nosi berilgan. Turg'un birikmalar ular bosh so'zga tuzilgan lug'at maqolasi ichida, bosh so'zning o'ziga tuzilgan lug'at maqolasi nihoyasiga etgach, yangi qatordan qora harflar bilan avval izohlanuvchi birlik sifatida berilgan. Demakki, ularning o'ziga lug'at maqolasi tuzilgan. Biroq mazkur kitobga kiritilgan iboralar grammatik jihatdan tavsifi berilmagan.

Yuqorida nimlari qayd etilgan lug'atlardan tashqari yana boshqa bir qancha lug'atlar yaratilgan bo'lib, ushbu lug'atlarda iboralar quyidagi ko'rinishlarda berilgan: Bosh so'z mustaqil qo'llanmay, biror so'z bilan yoki turg'un ibora tarkibida qo'llanadigan bo'lsa, uning ketidan ostin-ustun ikki nuqta (:) qo'yilib, so'ngra shu so'z bilan beriladi.

Misol: **LOM-MIM: lom-mim demaslik...**

NIL: _bo'yoqchining nili...

Ajratib yoziladigan yasama so'z va turg'un birikmalar ham, asosan, yuqoridagi prinsipga, ya'ni ot bo'lsa. bosh kelishikda, fe'lga teng bo'lsa, -moq shaklida berildi. Lekin ba'zi turg'un birikmalar (frazeologik birikmalar) nutqda ma'lum bir shakldagina qo'llanadi va ular lug'atda ham xuddi shu shaklida berildi. Masalan, *ilonning yog'ini yalagan, yog' tushsa yalaguday, ilon po'st tashlaydi* iboralari faqat shu shaklida qo'llanadi va lug'atda ham shu shaklda berildi. Misol: Bosh so'z ko'p ma'noli bo'lsa, frazeologik iboralardan boshqa iboralar bosh so'zning qaysi ma'nosiga aloqador bo'lsa, shu ma'nosida (shu ma'nosining izohi va unga berilgan misollardan so'ng) berildi. Frazeologik ibora (iboralar) lug'at maqolasi oxirida berildi. Misol:

BOSH₁. Tananing bo'yindan yuqori qismi. Odamning boshi... Boshini olmoq... Boshim kal, ko'nglim nozik...

2. Aql, es... Boshiga kelmoq...

3. Eng oldingi, birinchi. (o'rindagi)...

Bosh gap (tlsh.)... Bosh soʻz 1) ayn. soʻz boshi...; 2) izohli lugʻatda alifbo tartibida berilgan, unga lugʻat maqolasi tuziladigan muayyan soʻz... **Bosh olib ketmoq... Bir yoqadan bosh chiqarib...**

1. Turgʻun iboralar shu ibora tarkibida albatta qatnashadigan (majburiy komponenti boʻlgan), shu iboraning shakllanishida asosiy soʻz hisoblanuvchi soʻzga tuzilgan lugʻat maqolasida berildi.

2. Bir soʻz yoki uning maʼnolariga kiritiladigan bir tipdagi iboralar, maqol va matallar birdan ortiq boʻlsa, alifbo tartibida berildi. Frazologik iboralar ham alifbo tartibida berildi.

3. Turgʻun iboralarning variantlari (tarkibiy qismida boʻladigan oʻzgarish) qavs ichida yoki soʻzi bilan koʻrsatildi. Masalan, azob tortmoq (yoki chekmoq), koʻngli (yoki feʼli) tor, koʻngli joyiga (yoki oʻrniga) tushmoq, koʻngli oq (yoki oq koʻngil).

Mustaqillik barcha sohaning rivojlanishi, tadqiq qilinish imkonini berdi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Xususan, soʻz yuritayotganimiz frazeografiya sohasida ham koʻplab ishlar qilindi, yangidan yangi lugʻatlar shakllantirildi. Ayniqsa, 2017-yilda Baxtiyor Mengliyev, Mahbuba Xudoyberdiyeva, Oynisa Boymatovalar birgalikda maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan “Oʻzbek tili iboralarining oʻquv izohli lugʻati”ning yaratilishi maktablarda frazeologizmlarni oʻrganish uchun asosiy qoʻllanma vazifasini bajarmoqda. Iboralar birdan ortiq variantga ega boʻlsa, ular ketma-ket vergul bilan ajratilgan holda berilib, soʻngra izohlandi: **Avra-astarini agʻdardi, avra-astarini qoqdi, avra-astari soʻkildi, avra-astari qoqildi** – barcha kirdikorlarini ochib tashladi. **Avj oldi, avjiga mindi, avjiga chiqdi** – 1) rivojlandi 2) zoʻraydi, kuchaydi.

Feʼllar oʻquvchilarga qulaylik maqsadida asosan yaqin oʻtgan zamon shaklida berildi:

Aqldan ozdi – jinni boʻldi, telba boʻldi, esi ogʻdi

Aqli kirdi – 1) es- hushli boʻldi; 2) angladi, tushundi

Aqli yetdi – idrok qildi, uqdi, bildi

Aqlini tanidi – es-hushli bo‘ldi

Aql-u hushini yo‘qotdi – o‘z harakatlarini boshqara olmaydigan darajaga yetdi

Agar ibora ko‘p ma‘noli bo‘lsa, uning har bir ma‘nosi arab raqami bilan raqamlangan tarzda berildi:

Bag‘ri xun bo‘ldi - 1)ziq bo‘ldi 2) ruhan azoblandi

Baland keldi – 1) yengdi; 2) ustun keldi, g‘olib keldi

Barmog‘ini tishladi – 1) hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qoldi; 2) afsuslandi

Shakldosh iboralar alohida-alohida ravishda rim raqamlari bilan berildi:

Dunyodan o‘tdi I – yashab o‘tdi

Dunyodan o‘tdi II – qazo qildi, o‘ldi

Dong qotdi I – kutilmagan hodisaga duch kelib, karaxt bo‘lib qoldi

Dong qotdi II - hech narsani sezmaslik darajasida qattiq uxlandi¹⁸.

Mazkur lug‘at II tomlik Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalanilgan holda tuzilgan.

Davlat tilining mavqeyini mustahkamlash, uning til xususiyatlarini namoyon etishda frazeologik lug‘atlar muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli so‘ngi yillarda frazeologizmlarni bir erga jamlab, yaxlit bir ilmiy asoslangan, mukammal frazeologik lug‘at ehtiyoji yuzaga keldi. 2022-yilda Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyevalar hamkorligida “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” yaratildi. Mazkur lug‘atdagi frazeologizmlarning izohi lug‘at adabiy til va shevalarda, mumtoz tarixiy manbalarda mavjud iboralar tizimini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, unga tadqiqotchilar uchun qulay bo‘lishi, frazemalar tuzilishi va ma‘nosidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini yaratish maqsadida tarixiy frazeologizmlar ham kiritilgan. Misollar XIV asrning 2-yarmiga oid “Muhabbatnoma”, “Gulistoni bit-turkiy”, “Suhayl va Guldursun”, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari asosida to‘plandi. Bu iboralarning ma‘lum

¹⁸ Ўзбек тилининг изохли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, I том. – Тошкент, 2006. – Б. 12-13.

qismi hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida qo‘llanadi¹⁹. Bu lug‘atga Shavkat Rahmatullayevning 1992-yilda yaratgan “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” asos bo‘lib xizmat qilgan. Biroq bu lug‘atdagi eskirgan matnlar va lug‘aviy borliklar olibtashlangan. Lug‘atning yana bir ahamiyatli jihatlardan biri, lug‘at mustaqillikdan keyingi yillarda yaratilgan badiiy asarlardagi namunalar bilan boyitilgan. Ushbu lug‘atga qo‘shimcha ravishda 397 ta arxaik ibora, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006 – 2008), “O‘zbek frazeologiyasidan materiallar” (H.Berdiyev, R.Rasulov, B.Yo‘ldoshev; 1976–1983) qo‘llanmasi va shevalar asosida to‘plangan 1801 ta frazeologik birikma izoh kiritilgan²⁰. Umuman, frazeografiya sohasi bir oz murakkab va mashaqqatli soha hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida bir tilli (izohli), ikki tilli frazeologik lug‘atlar yaratilgan bo‘lsa-da, jahon tilshunosligidan farqli o‘laroq ko‘p tilli frazeologik lug‘atlar hanuzgacha shakllantirilmagan. Bizningcha, bu kabi lug‘atlarni tuzish katta hamiyatga ega. Chunki tilimizdagi frazeologizmlarni o‘zga tilga tarjima qilish jarayonida iboraning o‘zini so‘zma-so‘z tarjima qilinsa boshqa bir ma‘no kelib chiqishi mumkin. Shu jihatdan agar ko‘p tilli frazeologik lug‘at yaratilsa tarjima qilish osonlashgan bo‘lar edi. Aminmizki, lug‘atshunoslikning alohida sohalaridan biri hisoblanuvchi frazeografiya fani bundan keyingi yillarda olimlarimiz tomonidan yanada takomillashtirib boriladi.

Bob bo‘yicha xulosa

Bob yuzasidan xulosa qiladigan bo‘lsak, frazeologizmlar tilning eng muhim va boy qatlamlaridan biri bo‘lib, ular nutqning obrazliligi, ifodaviyligi va ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Uslubiy jihatdan qaralganda, frazeologik birliklar turli nutq uslublarida — badiiy, publitsistik, ilmiy va so‘zlashuv uslublarida o‘ziga xos vazifani bajaradi.

¹⁹ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 5.

²⁰ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 6.

Frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari ularning semantik yaxlitligi, ko'chma ma'no ifodalashi va tayyor birlik sifatida qo'llanishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan ular nutqni boyitadi, fikrni qisqa va aniq ifodalash imkonini beradi hamda tilning milliy o'ziga xosligini namoyon etadi. Har bir uslubda frazeologik birliklardan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish nutq madaniyatining muhim ko'rsatkichidir.

Frazeologizmlarning leksikografik ahamiyati ham beqiyosdir. Ularni lug'atlarda to'plash, izohlash va tizimlashtirish til boyligini saqlash, o'rganish va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologik lug'atlar nafaqat tilshunoslar, balki keng kitobxonlar ommasi uchun ham zarur manba hisoblanadi. Bunday lug'atlar orqali frazeologizmlarning ma'nosi, qo'llanish doirasi, uslubiy xususiyatlari va variantlari aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim vosita bo'lib, ularning uslublarda qo'llanilishi nutqning boyligi va ta'sirchanligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ularni leksikografik jihatdan o'rganish va tartibga solish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa

O'zbek tili frazeologizmlari tilshunoslikning muhim va serqirra sohalaridan biri bo'lib, ular milliy til boyligini, xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va tafakkur tarzini o'zida mujassam etadi. Mazkur kurs ishida frazeologizmlarning nazariy asoslari, ularning tasnifi, semantik va uslubiy xususiyatlari, shuningdek, nutq jarayonidagi o'rni va leksikografik ahamiyati atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, frazeologik birliklar nafaqat tilning lug'aviy qatlamini boyitadi, balki nutqning obrazlilik va ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Frazeologizmlar o'zining semantik yaxlitligi, turg'unligi va ko'chma ma'nolarga boyligi bilan boshqa leksik birliklardan ajralib turadi. Ular ko'pincha xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, tarixiy voqealari va madaniy

qadriyatleri bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli frazeologizmlarni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy va etnografik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kurs ishida keltirilgan misollar orqali o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning rang-barangligi va mazmuniy boyligi yoritib berildi.

Tadqiqot davomida frazeologizmlarning tasnifi masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Ular semantik jihatdan bir necha guruhlarga ajratilib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlandi. Shuningdek, frazeologizmlarning erkin birikmalardan farqi, ularning turg‘unlik darajasi, komponentlar o‘rtasidagi semantik bog‘liqlik kabi masalalar ham tahlil qilindi. Bu esa frazeologik birliklarni to‘g‘ri anglash va ularni nutqda o‘rinli qo‘llash uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari ham kurs ishining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Ularning badiiy, publitsistik, so‘zlashuv va ilmiy uslublarda qo‘llanishi tahlil qilinib, har bir uslubda frazeologik birliklarning vazifasi va ahamiyati ko‘rsatib berildi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda frazeologizmlar obraz yaratish, qahramon xarakterini ochish va muallif g‘oyasini ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lishi alohida ta’kidlandi. So‘zlashuv nutqida esa ular muloqotning tabiiyligi va jonliligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, frazeologizmlarning leksikografik ahamiyati ham keng yoritildi. Ularni lug‘atlarda jamlash, izohlash va tizimlashtirish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Frazeologik lug‘atlar til boyligini saqlash, uni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali frazeologik birliklarning ma’nosi, qo‘llanish doirasi, uslubiy xususiyatlari va variantlari aniqlanadi. Bu esa nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki ta’lim jarayonida ham katta ahamiyatga ega.

Kurs ishining yana bir muhim jihati shundaki, unda frazeologizmlardan samarali foydalanish masalasi ham yoritildi. Nutqda frazeologik birliklardan o‘rinli foydalanish fikrni aniq, lo‘nda va ta’sirchan ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, ularni noo‘rin qo‘llash nutqning mantiqiyliги va aniqligiga putur yetkazishi

mumkin. Demak, frazeologizmlardan foydalanishda ularning ma'nosi va uslubiy xususiyatlarini chuqur anglash zarur.

Umuman olganda, o'zbek tili frazeologizmlari tilning eng boy va ifodali qatlamlaridan biri sifatida alohida ilmiy o'rganishni talab etadi. Ularni tadqiq etish orqali tilning ichki imkoniyatlari, milliy o'ziga xosligi va estetik qudrati yanada chuqurroq anglanadi. Mazkur kurs ishida erishilgan natijalar frazeologiya sohasidagi ilmiy izlanishlarni davom ettirish, frazeologik birliklarni yanada chuqurroq o'rganish va ularni amaliyotda samarali qo'llash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar o'zbek tilining ajralmas qismi bo'lib, ular nutqni boyituvchi, fikrni obrazli va ta'sirchan ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Ularning uslubiy va leksikografik jihatdan o'rganilishi tilshunoslik rivoji uchun katta ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar frazeologik boylikni yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. Milliy nashrlar:

2. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 215.
3. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент:1991. – 280 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. — Тошкент: Университет, 1992. – 127 б.
5. Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Ташкент: Фан, 1983. – 136 с
6. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili 11-sinf darslik. – Toshkent: 2018. – B. 77.

2. Xorijiy nashrlar

7. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М: Высшая школа, 1969. – С. 187.
8. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз.– 2-е изд., перераб. – М.: Высш. шк., Дубна: Изд. центр “Феникс”, 1996. – 381 с.
9. Смирнитский А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИИЛ, 1956. – 269 с.

III. Lug‘atlar

10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар, 1992. – 379 б.
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилдли. II жилд. – М.: Рус тили нашриёти. 1981. – 715 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2006-2007. II жилд. – 671 б.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: 2006-2007. I жилд. – 680 б.
15. Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati (maktab o‘quvchilari uchun). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 57 b.
16. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – 636 b.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

17. Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Фил.фан. номз. автореф. – Тошкент 2009. – 127 б.

V. Internet saytlari

18. <https://izoh.ibora>
19. <https://izoh.frazeologizm>.
20. <http://www.google.ru>.
21. <https://diss.natlib.uz>.
22. <http://www.umd.edu>.
23. <http://library//ziyonet.uz>.